

тўғрисидаги

фармони.

https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston2030/strategiyasi_asosiy_yunalishlar

2. Tojiyeva, Zulkhumor, et al. "Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan." E3S Web of Conferences. Vol. 491. EDP Sciences, 2024.

3. Zulkhumor, T., Lutfullo, I., Muazzam, S., & Nizomiddin, J. (2022). Territorial characteristics of social and environmental problems in the location of the population of Uzbekis. International Journal of Health Sciences, 6(S3), 11026–11033. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS3.8555>

4. Jaloliddinov N. Toshkent viloyati bolalar o 'limida ijtimoiy sohalar tizimining roli va rivojlanish istiqbollari //Nashrlar. – 2023. – C. 433-435.

5. Баҳриддинова М., Жалолиддинов Н. Ўзбекистон ҳудудида демографик вазият ва унинг замонавий муаммолари //Iqtisodiyot va ta 'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 127-132.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA HUDUDLARIDA IQTISODIYOTNI YANADA RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI TURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

G'ulomova Gulnora

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi If.n.,

Abdumannanova Gulnoz

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi magistranti

Bugungi kunda va avvallari ham mamlakatlar iqtisodiyotida turizmning ahamiyati yuqori bo`lib, unda xizmat ko`rsatish sohasining ulushini oshirishda turtki bo`layotgan omillarning asosiysi sifatida qarab keliadi. Shu sababli ham mamlakatimizda turizmga bo`lgan e'tibor yuqori o`rinlarda turibdi. Shu jumladan, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida ko`plab qaror, farmon va farmoyish, qonun-qoidalar ishlab chiqilmoqda va amalda qo'llanilib kelinmoqda. Ular jumlasiga “O'zbekiston Respublikasi Turizm to`g`risidagi qonuni”,⁵¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Turizm yo`nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizmini samarali tashkil qilish chora tadbirlar to`g`risida” qarori⁵², vazirlar mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori⁵³ va shunga o`xshash turizm bilan bog`liq bo`lgan ko`plab qonun hujjatlari imzolandi. Bularning barchasi aynan ushbu sohani yanada jadal sur'atlarda rivojlantirish maqsadida qilingan asosiy ishlar hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqil davlat bo`lganidan so`ng turizm sohasini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratila boshlangan va ayrim turistik obektlar qayta rekonstruksiya qilindi, yangi joylar barpo etildi, turizm infratuzilmasi tashkil etildi hamda turli qulayliklar

⁵¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son, <https://lex.uz/docs/-4428097>

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son <https://lex.uz/docs/-6549286>

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.08.2022 yildagi 475-son <https://lex.uz/docs/-6173258?ONDATE=26.08.2022>

yaratilib berila boshlandi. Aynan turizm yo`nalishiga qo`shimcha investitsiyalar jalg qilinib, ularga ko`plab imtiyozlar yaratib berildi.

Turizm yo`nalishiga qo`shimcha investitsiyalarni jalg qilish, xususiya sector uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo`nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ`ib qilishni jadallashtirish, shhuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarini joriy qilish maqsadida⁵⁴ qo`shimcha chora tadbirlar ham amalga oshirayotganing guvohi bo`lish mumkin.

Turizm yaqin va uzoq kelajakdayam kengayishi shubhasiz. Ham xalqaro, ham ichki turizmni kengaytirish mamlakatlar iqtisodiyoti uchun foydalidir. Internet turizmining rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatadi. Texnologiyalar taraqqiylashgani sayin, sayohatni oldindan qanday tashkil qilish (bronlash, xaritalar, chiptalar va boshqalar) haqida istalgan vaqtida istalgan ma'lumotni toppish osonlashib bormoqda. Umuman olganda, turizm butun dunyo bo`ylab tez rivojlanib kelayotgan ulkan piramidaga o`xshash sanoat deyish mumkin.

Bundan tashqari turizm global soha sifatida yuqori investitsiyalarni jalg qiladi, bozorning yuqori sur'atlarda kreditlari va boshqa tarmoqlar bilan bevosita yoki bilvosita bog`lanishi rivojlanish ko`rsatkichlarining ijobjiy o`zgarishiga olib keladi.

Turizm global hodisa bo`lib, u tobora ko`proq odamlarni qamrab oladi va butun dunyodagi eng yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm sohasini yanada chuqurroq o`rganish uchun quyidagi vazifalarni o`rganish mumkin:⁵⁵

- Turizmnинг ма’носини о’рганиш;
- Turizm sohasining asosiy ko`rsatkichlari bo`yicha statistic ma'lumotlarni hududlar bo`yicha tahlil qilish;
- Turizmnинг rivojlanish bosh rejalariva strategik rivojlanish rejalarini qayta ishslash metodologiyasini o`ragnish;
- Mamlakatlar uchun turizm raqobatbardoshlik indeksini tahlil qilish;
- So`nggi yillarda dunyo bo`ylab sayyohlik va turizm tendensiylarini aniqlash va boshalar.

Turizmni rivojlantirish doirasi global tendensiylar, mavjud resurslar va salohiyat, turistlarning ehtiyojlari va mahalliy aholi manfaatlariga muvofiq turizm rivojlanishini ta'minlash uchun mintaqalar tomonidan amal qilishi mumkin bo`lgan keng qamrovli vositadir. Quyida 1-rasmida keltirilgan turizmni rivojlantirishning asosiy to`rtta elementlardan iborat:⁵⁶

⁵⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldaggi PQ-238-soni qarori <https://lex.uz/docs/-6549286>

⁵⁵Tovmasyan G. Tourism development trends in the world //European Journal of Economic Studies. – 2016. – №. 3. – C. 429-434. https://www.researchgate.net/profile/Gayane-Tovmasyan/publication/323748083_Tourism_development_trends_in_the_world_httpselibraryruitemaspid27207616/links/5ba32bda45851574f7d80f15/Tourism-development-trends-in-the-world-https-elibraryru-itemaspid27207616.pdf


⁵⁶ Alina Ianioglo & Marko Rissanen (2020) Global trends and tourism development in peripheral areas, Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism, 20:5, 520-539, <https://doi.org/10.1080/15022250.2020.1848620>

1. Global tendensiyalarga ta'sir qiladi. yigirma birinchi asrda turizm industriyasidagi o'zgarishlarning ikkita asosiy omili bor: iqlim o'zgarishi va global sog`liq uchun favqulotda vaziyatlar kiradi.

2. Turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, xaridlar/sayyoohlar bilan bog`liq bo`lgan talab omillari(ixtiyoriy daromad, vaqt mavjudligi, mavsumiy talablar, dam olish maqsadlari va ehtiyoji, demografik xususiyatlar va boshqalar)

3. Turizmn rivojlantirish yo`lidagi qadamlar: kelgusida boshqarilishi va imkoniyatlarga aylantirilishi mumkin bo`lgan asosiy masalalarni toppish uchun turistik mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida qarash, monitoring va baholash tizimini o`rnatish;

4. Turizmnning ta'siri: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va madaniy ta'sirlarini ko`rish. Bu yerda turizm rivojlanishining nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sirini ham hisobga olish kerak, masalan mavsumiy ishsizlik, yashash narxining oshishi, turmush tarzining istalmagan o'zgarishi (ijtimoiy-iqtisodiy), tabiiy va madaniy ta'sirlar, milliy urf-odatlarning ta'sirini ko`rish va boshqalar.



1-rasm.Turizmn rivojlantirish asoslari⁵⁷

⁵⁷ Muallif tomonidan internet manbaalari asosida tayyorlandi

Turizmda biznes va tadbirkorlik faoliyati har qanday biznes segmenti kabi iqtisodiyotning yuqori raqobatdosh sohasidir. Raqobatdoshlik eng yaxshi va muqobil narx hamda qiymatni bozorda moslashuvchanligini saqlab beradigan omil hisoblanadi. Yuqori tarmoqli marketing muhitida tajribalardan foydalangan holda iste'molchilar turizm faoliyatidagi sharhlar va tasdiqlashlar shaklida marketing vositasiga aylantirishga olib kelishini kuzatish mumkin. Samarali marketing strategiyalarini turizm sohasida yaratishda iste'molchilarning fikri hamda ularning mamlakat turizm salohiyatidan olgan tajribalari orqali tushunish mumkin.

Bu, o'z navbatida, turizm industriyasining uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligiga, iqtisodiy o'sishni rag`batlantirib, kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, barqarorlikka e'tibor qaratgan holda iqtisodiy turizmni rivojlantirish yo`nalishlar, sayyoohlар va mahalliy hamjamiyatlar uchun ham g`alaba qozonadigan senariy bo`lib, mas'uliyatli sayohat amaliyotlarini ilgari suradi va turizmning hayotiy iqtisodiy sektor sifatida davom etishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son, <https://lex.uz/docs/-4428097>
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son <https://lex.uz/docs/-6549286>
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.08.2022 yildagi 475-son <https://lex.uz/docs/-6173258?ONDATE=26.08.2022>
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldaggi PQ-238-son qarori <https://lex.uz/docs/-6549286>
5. A.Sh. Bekmurodov, U.V. G`afurov, B.K.Tuxliev. *Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonning samarali iqtisodiy siyosati. O`quv qo`llanma.* T.: TDIU – 124 b.
6. F.N. XALIMOVA, *Turizm va mehmonxona faoliyati, O`quv qo`llanma, Toshkent 2021.*
7. Tovmasyan G. *Tourism development trends in the world //European Journal of Economic Studies.* – 2016. – №. 3. – C. 429-434.
8. Alina Ianioglo & Marko Rissanen (2020) *Global trends and tourism development in peripheral areas, Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism, 20:5, 520-539,* <https://doi.org/10.1080/15022250.2020.1848620>
9. Moscardo, G. *Connecting people with experiences. In A Research Agenda for Sustainable Tourism;* McCool, S., Bosak, K., Eds.; Edward Elgar: Cheltenham, UK, 2019; pp. 70–89.
10. <https://unwto.org>
11. <https://lex.uz/uz/docs>
12. https://www.researchgate.net/profile/Gayane-Tovmasyan/publication/323748083_Tourism_development_trends_in_the_world_https://libraryruitemaspid27207616/links/5ba32bda45851574f7d80f15/Tourism-development-trends-in-the-world-https://libraryru-itemaspid27207616.pdf
13. <https://www.sciencedirect.com/science/article>
14. <https://www.researchgate.net>